

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

**ALLA MATNLARINING LINGVISTIK TADQIQI**

*Sulaymonova Zebiniso*

*Namangan Davlat Universiteti Tayanch Doktoranti*

*Filologiya Fanlari Nomzodi Dotsent*

*Axmedova Nargiza*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek xalq allalarining genezisi, “alla” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi hamda etimologiyasiga oid nazariy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, folklorshunos olimlarning allalar haqidagi tadqiqotlari hamda alla matnlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag‘ishlangan qilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** alla, assotsiatsiya, balu-balu, folklor, etimologiya, janr, ramz, sifatlash, obraz, o‘xshatish, vosita, lug‘at, lingvopoetika, lingvokulturologiya

**Аннотации:** В статье рассматриваются теоретические взгляды на генезис узбекский народных колыбельная, лексику, значения и этимологию слова колыбельная, а также результаты исследований фольклористов и лингвистический анализ текстов колыбельных

**Ключевие слова:** Колыбельная, ассоциация, балу-балу, фольклор, этимология, жанр, символ, сравнение, образ, словарь, лингвопоетика, лингвокультурология.

**Annotation:** The article covers theoretical views on the genesis of Uzbek national lullaby, the lexical meaning and etymology of the word “lullaby”. Also, the research of folklorists on lullabies and scientific research devoted to the linguistic analysis of lullaby texts are analyzed.

**Key words:** lullaby, association, balu-balu, folklore, etymology, genre, symbol, qualify, image, dictionary, linguopoetics, linguoculturology.

### **Kirish**

Alla onaning farzandga mehr-u muhabbati, farzand kelajagi bilan bog‘liq orzu-umidlar ifodasidir. Allalarning genezisi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, chunki alla ona va farzand o‘rtasidagi munosabat, onaning o‘z farzandiga cheksiz samimiy muhabbatini aks ettiradi. Bu kabi tuyg‘ular insoniyat ibtidosi bilan bog‘liq bo‘lib, mehr onalik tabiatiga xos asosiy fazilatdir. O‘zbek xalq allarini tadqiq qilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida Abu Ali ibn Sino zamonidayoq O‘rta Osiyodagina emas, balki u kezgan O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar orasida allaning muhim ahamiyat kasb etganligini, o‘z an‘anaviy xususiyatlariga ega mustaqil janr sifatida keng tarqalganligini turkiy xalqlar o‘rtasida uning “balu-balu” nomi bilan “Devoni lug‘otit-turk”da uchrashini, Alisher Navoiy asarlarida alla aytuvchi *navogo* ‘ deb nomlanishini qayd etganlar.

Tadqiqot ob‘yekti materiallari va usullari

Tadqiqot ob’yekti sifatida alla matnlari bo’yicha yozilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, folklorshunoslar tomonidan yig’ilgan alla matnlari, lug’atlar tanlandi.

Maqolada qiyosiy, tavsifiy, kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Folklorshunos olimlar tomonidan alla matnlarini o’rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, M.Alaviya, G’.Jahongirov, M.Jo’rayev, K.Ochilov, E.Ochilov, O.Madayev, T.Mirzayev, S.Mirzayeva, G.Qayumova, H.Razzoqov, O.Safarov, A.Tilavov, Sh.Turg’unov, M.Yoqubbekovalarning bu boradagi xizmatlari alohida.

Folklorshunos olim G’.Jahongirov beshik qo’shiqlari, topishmoqlar va tez aytishlarni bolalar folklori janrlari deya baholagan, o’z davrida ularning janri bilan bog’liq munozarali masalaga nuqta qo’ygan.

Alla matnlarini yig’ish borasida Oxunjon Safarovning faoliyati muhim ahamiyatga ega. “El suyarim, alla”, “Alla-yo alla”, “Boychechak” alla to’plamlari folklorshunoslik, tilshunoslik uchun muhim manba hisoblanadi. “Bolalarni erkalovchi o’zbek xalq qo’shiqlari” nomli monografiyasida o’zbek xalq allalarini kompozitsion jihatdan ikki turga bo’lib, ya’ni parokanda va voqeaband alla turlariga ajratgan bo’lsa, mavzu jihatdan avaylovchi, maishiy, tarixiy kabi turlarga ajratgan. Folklorshunos olim O.Safarovning alla so’zining kelib chiqishi, lug’aviy ma’nosi xususidagi fikrlari boshqa tadqiqotchilarnikidan ajralib turadi. Olim O.Madayev o’zining “Xalq og’zaki poetik ijodi” nomli darslik kitobida alla so’zining kelib chiqishi va ma’nosini Alloh nomi bilan bog’lagan. D.Yo’ldasheva “O’zbek bolalar folklori tilida zoonimlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ona allasi – arabcha “Ollohni tanitmoq” ma’nosini ifodalashini ko’rsatgan. O.Safarov “El suyarim, alla” o’zbek xalq allari to’plamida alla so’zining “Alloh”, “Olloh” yoki “aldamoq” so’zlaridan kelib chiqqani haqidagi qarashlarni rad etadi. U Z.Budagov tomonidan chig’atoychada “allala” so’zi “ensa, boshning orqa qismi” ma’nosida qo’llanganini eslatib, bolaning chalqancha yotganda ensasi yostiqqa tegishi bilan bog’laydi. Shu bois, “alla” lug’aviy jihatdan “ensa”ni, istilohiy jihatdan esa xalq og’zaki ijodining bir janrini bildirishini ta’kidlaydi. Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O’zbek tilining etimologik lug’ati”da ALLA “go’dakni uxlatish paytida aytiladigan misralar”. Ona allasidan bebahra bo’lgan go’daklar ham bor. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “tinchlani” ma’nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so’zidan kelib chiqqan; o’zbek tilida a unlilari ä unlilariga almashgan, l undoshi qatlangan: ala – ala <alla <ällä. Kuylanadigan misralar oxirida kelganida bu so’z undovlik xususiyatini saqlaydi, shunday misralarning nomi sifatida esa otga teng bo’ladi

M.Yoqubbekova “O’zbek xalq qo’shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida o’zbek xalq allalarida qo’llangan o’xshatish, metafora va sifatlashlarni o’rganib chiqqan. Dissertatsiyada xalq qo’shiqlarida uchragan o’xshatish vositalaridan eng kamyobini “*bir... -dir*” vositasi deb baholab, go’yo, xuddi, -ning o’zginasi vositalari bilan sinonim bo’la olishini alla matni misolida ko’rsatib o’tgan:

*Shu o’g’lim bir qizil guldir, alla.*

*Gulga qo’ngan bulbuldir, alla.*

Olima M.Yoqubbekova tadqiqotlarida allalarda “gul” obrazi farzand timsoli sifatida talqin qilinadi. Olimaning fikricha, gulning go’zallik, noziklik, xushbo’ylik va mukammal mutanosiblik kabi

xususiyatlari bola timsoli bilan uyg'unlik kasb etadi. Shuningdek, gul ham, go'dak ham o'sish, o'zgarish va taraqqiyotning boshlang'ichida turganligi bois mazkur semantik moslik yanada mustahkamlanadi.

Folklorshunos olim S.Mirzayeva “Alpomishga alla aytgan momolarim” to'plamida allalarning poetik-musiqiy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, unda so'z va kuy birligi doimo saqlanavermasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu birlik uzilganda, alla o'zining badiiy yaxlitligini yo'qotib, faqat yarim tuyg'u yoki musiqiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, olim allalarni ko'pincha onalarning improvizatsion ijodi mahsuli sifatida talqin etadi. S.Mirzayeva to'plamda Andijon viloyati alla na'munalaridan keltiradi.

Sh.Turg'unov “Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida Namangan allalarida qo'llangan tasviriy vositalar, ramzlar, sifatlashlarni tadqiq qilib, unda olma va shaftoli obrazlari hamda “yaxshi” va “yomon” so'zlari ziddlik asosida qo'llanganini ko'rsatadi. Olim bu mevalarning ramziy obraz darajasiga ko'tarilganini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida alla bo'yicha maxsus tadqiqot olib borilmagan. Alla matnlarining lingvistik jihatdan o'rganilishi D.Hasanova, R.Ibragimova, D.Lutfullayeva, D.Yo'ldashevalarning ilmiy tadqiqotlarida bir qadar o'z aksini topgan.

R.Ibragimovaning “Fransuz va o'zbek tillarida *ayol* konseptining lingvokognitiv tadqiqi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida alla ayol lingvomadaniyatini tavsiflovchi kognitiv belgilardan biri sifatida ta'kidlanib, uning ona tilini bolaning ongiga singdiruvchi ahamiyatga molik birinchi vosita ekanligi e'tirof etilgan.

S.G'aniyev va H.Hamroyevalarning “Qozog'iston o'zbeklari folklorining tarbiyaviy xususiyatlari” nomli maqolasida qozog'iston o'zbeklarining alla na'munalari misollar orqali tahlil qilingan:

*Oy boradi botgani,*

*Hulkar kelar yotgani,*

*Senga alla aytaman*

*Miriqib uxlatgani.*

*Alla-yo, alla.*

D.Hasanova o'zining “O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari” nomli doktorlik dissertatsiyasida alla shaxs sotsial belgilarini ifodalovchi, yoshga xos leksik birliklardan biri sifatida baholangan.

D.Yo'ldasheva “O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida bolalar folklorining boshqa janrlari qatorida alla matnlarida hayvon nomlarining qo'llanishini tadqiq qilgan. Olima allalarda qo'llanilgan zoonimlar kattalarning bolalarga nisbatan bo'lgan ijobiy va sub'yektiv bahosini ifodalashini ko'rsatgan. Dissertatsiyada alla matnlari mazmunida qarama-qarshi tushuncha, zidd fikrlar hayvon nomlari vositasida yuzaga chiqishi masalan, kuchli va ojiz, ya'ni katta va kichik ziddlanishi kuchli: *arslon, qoplun, sher* zoonimlari yordamida berilsa, ojiz va kichik ma'nolari: *toychoq,*

*bo'taloq, qulun* leksemalari orqali ifodalanishi ko'rsatilgan. Bu leksemalar vositasida bolaning hozir kichik va o'zligiga, lekin katta bo'lganda baquvvat, kuchli bo'lishiga ishora ekani ta'kidlangan.

D.Lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyevlar tomonidan tuzilgan “O'zbek tili assotsiativ lug'ati”da alla milliy kuy-qo'shiq nomini bildiruvchi stimol so'zlardan biri sifatida o'rganilgan. Nutqiy faol madaniy birliklardan biri deb baholangan alla leksemasi uchun berilgan *sabr, fidoiylilik, baxt, shukrona, so'z sehri, baxtli hayot, qaynoq mehr nafasi, mehr nuri, shifobaxsh* javob reaksiyalarida til egalarining mazkur muqaddas milliy-madaniy qadriyatga bo'lgan ijobiy munosabati ifodalangani lug'atda qayd etilgan.

### **Xulosa**

Alla matnlari bolalarni uxlatish, tarbiyalash, olam bilan tanishtirish, onalarning ruhiy osoyishtaligiga xizmat qiluvchi qo'shiq bo'lishi bilan bir qatorda farzand kejasiga ta'sir qiluvchi vositalardan biridir. Bola yoshligida ongiga singan fikrlar, ma'lumotlar asosida odamlar bilan muloqotga kirishadi, farzandlarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, tashqi dunyoga bo'lgan munosabatida ham allalarning o'z o'rnini bor. Alla matnlariga buyuk allomalarimizdan boshlab bugungi kun olimlariga qadar murojaat etib kelishmoqda. Alla matnlari folklorshunoslik doirasida atroflicha o'rganilgan, ilmiy xulosalar berilgan. Tilshunoslik doirasida maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan. Ilmiy tadqiqotlarda boshqa janrlar bilan birgalikda qisman yoritilgan. Alla matnlarida ko'plab madaniy birliklar, xalq etnografiyasiga oid udumlar mavjud bo'lib, ularni lingvokulturologik jihatdan o'rganish tilshunosligimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun muhim sanaladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alaviya M. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq ijodi. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent, 1972.
2. Hasanova D. O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Qo'qon, 2022.
3. Ibragimova R. Fransuz va o'zbek tillarida *ayol* konseptining lingvokognitiv tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012.
4. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
5. Jo'rayev M. Oy oldida bir yulduz: O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). /lug'at/ – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019.
7. Ochilov E. Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006.
8. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010
9. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008.
10. Mirzayeva S. Alpomishga alla aytgan momolarim: To'plam. – Andijon. 2012.

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

11. Qayumova G. Unutilgan qadriyatlar: Buxoro allalari. – Buxoro: Buxoro, 1998.
12. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar) /lug‘at/ – Toshkent: Universitet, 2000.
13. Razzoqov H. Gulyor: Farg‘ona xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
14. Safarov O. Alla-yo alla. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
15. Tilavov A. Eng sara allalar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017.
16. Turg‘unov Sh. Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2019.
17. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari: Filologiya fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2005.
18. G‘aniyev S., Hamroyeva H. Qozog‘iston o‘zbeklari folklorining tarbiyaviy xususiyatlari// Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur uyg‘unligi masalasi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. 2020.